



VIRUSLI GEPATIT VA OKSIDLOVCHI STRESS O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK VA GEPATITDA OKSIDLANISH JARAYONLARI

Muhammadjonova Dildora

Rustamova Shohista

Annotatsiya:

Ushbu maqolada virusli gepatit B va C bemorlarida oksidlovchi stress darajasi o‘rganildi. Tadqiqotda MDA va SOD faoliyati o‘lchangan, gepatit bemorlarida oksidlovchi stress yuqori va antioksidant himoya pasaygani aniqlangan. Maqola gepatit kasalligida oksidlovchi stressning roli va antioksidant terapiya ahamiyatini muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: Virusli gepatit, oksidlovchi stress, oksidlanish jarayoni, MDA, SOD, antioksidant himoya, lipid peroksidatsiya.

Kirish:

Virusli gepatit B va C jigar hujayralarini zararlovchi surunkali kasallikdir. Kasallik davomida oksidlovchi stress darajasi oshadi, bu esa lipid peroksidatsiyasini kuchaytiradi va hujayra membranalarini hamda DNK shikastlanishini o‘z ichiga oladi. Oksidlovchi stress hujayralarning normal funksiyasini buzib, fibroz va sirroz rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Oksidlovchi stress organizmning tabiiy antioksidant himoya mexanizmlari bilan muvozanatlashadi, lekin gepatit bemorlarida bu mexanizm yetarli bo‘lmasligi mumkin. Ushbu tadqiqotning maqsadi gepatit bilan og‘rigan bemorlarda oksidlovchi stress darajasini aniqlash va kasallik bilan bog‘liqligini o‘rganishdir. Tadqiqotda bemorlar hamda sog‘lom nazorat qon namunalarida malondialdegid (MDA), Glutatyon peroksidaza (GPx) faoliyati, va superoksid dismutaza (SOD) faoliyati o‘lchangan. Olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilingan.

Gepatit bemorlarida MDA darajasi nazorat guruhga nisbatan sezilarli darajada yuqori edi ($p < 0,05$). GPx va SOD faoliyati esa bemorlarda pastlashgan. Antioksidant himoyaning zaiflashganini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar gepatitning surunkali shaklida oksidlovchi stress kuchayishini ko‘rsatadi. Oksidlovchi stress gepatit kasalligida



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

asosiy patogenetik mexanizmlardan biridir. MDA darajasi oshishi lipid peroksidatsiyasi va hujayra shikastlanishini aks ettiradi. SOD faoliyatining pasayishi esa organizmning antioksidant himoyasi zaiflashganini bildiradi. Antioksidant faollikning pasayishi esa organizmni erkin radikallarga qarshi zaif qiladi. Bu esa jigar funksiyalarining yomonlashuvi va fibroz rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa:

Oksidlovchi stress markerlarini monitoring qilish gepatit bemorlarida kasallik kechishini kuzatishda muhim ahamiyatga ega. Antioksidant terapiyani qo'llash kasallik kechishini sekinlashtirishi mumkin bu bemorlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tanaka K. et al. Oxidative stress in chronic hepatitis. Biochem J, 2021.
2. Park H. et al. Antioxidant defense in viral hepatitis. J Med Virol, 2020.
3. Lee S. et al. Oxidative stress in hepatitis C. Hepatology, 2020.
4. Kim J. et al. Antioxidant mechanisms in chronic hepatitis. Clin Exp Hepatol, 2019.